

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH
SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

To‘rayeva Dilobar
Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani
68-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish va rivojlantirish haqida mulohazalar yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich sinf, o‘qish savodxonligi, orfoepiya.

O‘zbekistonning kelajagini buyuk davlat darajasiga olib chiqadigan kuchli shaxslarni yaratishda boshlang‘ich ta’lim poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy maqsadi- o‘quvchilarining fikrlash doirasini keng bo‘lishini ta’minlash. Ularning ma’lumotlarini tahlil qilib, keng miqyosda foydalanishiga erishish. Bolaning ong va tafakkurini endi shakllanib kelayotgan boshlangich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonavit texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ilg‘or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, ta’lim berishning yangi usullari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda har bir kishining savodxon bo‘lishiga alohida e’tibor berilmoida. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev kelajak avlodning savodxon, yuksak ma’naviyat egasi bolib yetishishlari uchun g‘amxorlik qilmoqdalar. Yurtboshimiz tomonidan har yili yangi o‘quv yilida 1-sinfga qadam qoygan jazzi o‘quvchilarga darslik va o‘quv quroollarining sovg‘a qilinishi bunga yaqqol misoldir.

O‘zbekiston Respublikasida umumiyl o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yonalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy va intelektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga kotarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Xalq talimini boshqarish tizimini takomillashtirish boyicha qoshimcha chora tadbirlar togrisida“gi PF-5538-sonli farmonida ham boshlangich sinf o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarining asosiy qismi Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida amalga oshirilishi nazarda tutib o‘tilgan. Boshlangich sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining maqsadi o‘quvchilarda ongli, togri, ravon, tez va ifodali o‘qish malakasini hosil qilish, o‘quvchida tilga doir 4 konikma, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq sozlash va yozish hamda grammatik savodxonlikka qaratiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari matematika, tabiy fanlar, tarbiya va boshqa fanlarga doir mavzularda beriladigan bilimlarni mustahkam o‘qib olishlarida

juda katta ro'1 o'ynaydi, chunki bola togri, ongli ravon oqisagina matn mazmunini yaxshi anglab oladi. O'qish darsining o'zaro mahkam boglangan tort asosiy tarkibiy qismi bor. Ular quyidagilarda iborat: ongli o'qish, ifodali o'qish, togri o'qish va tez o'qish. Bu qismlar orasida ongli oqish yetakchi hisoblanadi. Ongli o'qish jarayonida oa'quvchilar quyidagi natijalarga erish olishlari kerak: o'qigan sozlarining asl va kochma manolarini, har bir gapning ma'nosini aytib bera olishlari, bo'limning mazmunini qisqacha bayon qilib bera olishlari, matning toliq mazmunini bayon qilib bera olishlari, oqiganlariga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishlar lozim. O'quvchida ifodali oqish malakasini tarbiyalash uchun esa uni o'qiganlariningma'nosini toxamlarga rioya etgan holda so'z urgulariga ahamiyat berib, o'rtacha ovozda ta'sirli o'qishga orgatish va hokazolar talab qilinadi.

To'g'ri o'qish malakasini oshirish uchun shoshmasdan, harflarning o'rmini almashtirmasdan, soz qoshimchalarini toliq holda orfoepiya qoidalariga rioya qilib o'qilishi lozim. O'qish rezligini oshirish uchun o'quvchilarining ongli oqishi katta ahamiyat kasb etadi. Ongli o'qish – matni tola va aniq tushunib o'qishdir. Ongli o'qish yuzasidan qilinadigan ishlar o'quvchilarning o'qilayotgan matn mazmunini chuqr anglab olishga, mantiqiy fikrlashga orgatadi, ularning fikr va malakalarin kengaytiradi. Ongli o'qish malakasini oshirish, darslik matnlari yuzasidan savol va topshiriqlar beriladi. Bu savol va topshiriqlar o'quvchilarni matn mazmunini qayta qayta hikoya qilishga hamda o'qituvchining savollariga mustaqil ravishda javob qaytarishga va o'z hayotiy tajribalarini ijodiy sozlab berishga o'rgatadi.

O'quvchilar matnni qismlarga bolib, unga mos sarlavha qo'yishga, har bir qism mazmunini ochuvchi rasmlar vaziyatlarga savollar topa bilishga ham asta-sekin o'rgatilib boriladi. Avval hajmi kichik va vmazmunan soda songra esa hajmi katta va mazmuni murakkabroq matnlar bilan ish olib boriladi. O'qishning ongli bo'lishiga yordam beradigan vositalardan biri bu togri oqishdir. O'qiganda xató qilmay, sozlarni buzmay, tovuslarni tushurib qoldirmay, yoki ornini almashtirmasdan qo'shimchalarini tog'ri talaffuz etish, orfoepiya qoidalariga rioya etish tog'ri o'qishni ta'minlaydi. Tog'ri o'qish malakasini hosil qilish oqishning hamma jarayonida olib boriladi. O'qish ongli bo'lsagina tog'ri va tez oqish malakasi hosil bo'ladi.

O'qish tezligi ongli, ravon o'qishga bogliqdir. O'qish tezligini oshirishga kop bog'inli va imlosi qiyin so'zlarni matndan tashqarida bog'inga bo'lib o'qish yordamida erishiladi. O'qish tezligini oshirish bosama va yozma harflar bilan yozligan soz va gaplarni ovoz chiqarib o'qishni, xor bo'lib o'qishni, ichida o'qishni koproq mashq qildirish yoli bilan ta'minlanadi. Bola qancha kop o'qisa o'qish tezligi shuncha ortib boradi. O'qish darsida berilgan bilimlar bolaning sinfdan tashqari vaqtlarida koproq kitob oqishini yolga qoyish bilan chuqurlashtiriladi.

O'quvchilarning o'qish tezligini oshirish uchun dars davomida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi dars boshlangunga qadar doskaga

bugun o’qiladigan matndagi ayrim gap va soozlarni bosma hatflat bilan yozib, ustini vaqtincha yopib qo’yadi. O’quvchilar kitoblarini ochib bugungi o’qiladigan matnni kozdan kechiradilar va doskadan yozilgan soz yoki gapni matndan tez topishga harakat qiladilar. Partalarga avvaldan savol yoki topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O’qituvchiining ruxsati bilan bolalar kartochlalarda hujjat savol- topshiriqlarni o’qiydida matn ichida shu savol topshiriqqa mos javob izlaydilar. „, Tez o’qish musobaqasi “ ni o’tkazish bolalarga alohida huzur bag’ishlaydi. Bunda har qaysi bolaning matnni bir vaqtida oqishga boshlashi , matnni malum bir vaqt ichida o’qib tugatishi lozimligi aytiladi. Birinchi bolib o’qib bolgan bolalar belgilab boriladi va o’qiganlarni og’zaki gapirishga tayyorlanib otiradi. Musobaqada g’olib chiqqanlar yulduzchalar bilan taqdirlanadi. Ifodali o’qish-sozlarni tog’ri talaffuz qilib, matn mazmunini tushunib, matnda ifoda etilgan his-tuygularni, qahramonlarning ichki kechinmalarini, ruhiy kayfiyatlarini anglab o’ish demakdir.

Matn yoki asarlar mazmuni o’quvchilarga to’la anglatish uchun o’qituvchining o’zi uni ifodali o’qish va hikoya qilib berishga puxta tayyorgarlik korishi zarur. Ifodali o’qish ongli o’qishning ko’rsatkichidir, chunki matning ma’nosini anglab o’qiy olgan o’quvchi, albatta, ifodali o’qish malakalrini ham egallagan bo’ladi. Ongli o’ish ifodali o’qish malakalarin o’stirish va mustahkamlashga yordam beradi. Ongli, tog’ri va ravon o’qish malakasi hosil qilingan sari, tasirli o’qish malakasi ham o’sib boradi. Ta’sirli o’qish o’quvchida his -tuygu uygotishga, voqeа hodialarni tasavvur etishga, estetik zavq bag’ishlashga xizmat qiladi. Ifodali o’qishda olib boriladigan ishlarning mazmunan va mahorati 4 asosiy shart bilan izohlanadi.: o’quvchilar o’qiganlari yuzasidan nimalarni aytib berishni (qanday fikr, qanday mazmun bayon etishni) yaxshi tushunib olishlari zarur, o’quvchilar asarda o’qiganlari yuzasidan jonli va ishonarli munosabatda bo’lishi lozim, adabiy asarlar o’quvchilarning malum maqsadga qaratilgan holda o’qishlarini, mazmunan bayon etishdagi moyilliklarini taqozo qiladi, eshituvchilarning matnni o’qiyotgan o’quvchi fikrini tushunib bilishi talab etiladi. Bularning barchasi ifodali o’qishni osishiga olib keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1.M.R. Is’hoqova va boshqalar, Maktabgacha kerak bolalarni savodxonlikka o’rgatish. Maktabgacha ta’lim shaxsiy tarbiyachilarini va ota-onalari uchun metodik qo’llanma. Toshkent-2018. 100b

2. Doniyorov M. Xalqaro baholash tizimida boshlangich ta’limning o’rni. Журнал начального образованияю. 2020-yil

3.X. G’ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, G.Mamatova, H. Boqiyeva. Husnixat va uni o’qitish metodikasi-T.:TDPU,2009

4. Azimova I. va boshqalar Ona tili va o ‘qish savodxonligi 2-sinf o’quvchilari uchun metodik qo’llanma-Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021